

TOSHKENT DAVLAT  
SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI



DILSHODA XODJIMURATOVA



**ERON**  
TASHQI SIYOSATI TARIXI  
(XX ASR OXIRI–XXI ASR BOSHI)

TOSHKENT – 2024

## **Annotatsiya**

O'quv qo'llanma "O'rganilayot mamlakat tarixi (Eron tarixi)" (Globallashuv davri) fan doirasida bajarilgan bo'lib, unda XX asr oxirida islom inqilobi natijasida Eron Islom Respublikasi tashqi siyosatining shakllanishi va rivojlanish jarayonlarini tahlil qiladi. Shuningdek, Eronning mintaqaviy va global darajadagi tashqi siyosiy maqsadlari, asosiy yo'nalishlari va strategik tamoyillari, mamlakat tashqi siyosatida "yumshoq kuch"ni qo'llashi, resurslari va vositalari ochib berilgan. Ushbu o'quv qo'llanma Eron tarixi va xalqaro munosabatlar bo'yicha talabalar, magistrantlar va tadqiqotchilar foydalanishlari uchun tayyorlangan.

### **Mas'ul muharrir**

siyosiy fanlar doktori, professor N.A.Abdullayev

### **Taqrizchilar**

tarix fanlari nomzodi, dotsent U.Abdullayev  
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent F.Jumaniyozova

O'quv qo'llanma Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti rektorining 2024-yil 12-dekabrda 328-sonli buyrug'iga asosan nashrga tavsiya etilgan.

## KIRISH

Eron tashqi siyosati o'tgan asr oxiri va XXI asr boshlarida dunyo geosiyosiy vaziyatidagi jiddiy o'zgarishlar, mintaqaviy mojarolar, iqtisodiy va madaniy aloqalarning kengayishi, shuningdek, globallashuv jarayonlari bilan uzviy bog'liq holda shakllangan. Mazkur davrda mamlakat tashqi siyosatida ichki va tashqi omillarning o'zaro ta'siri, mintaqaviy va xalqaro maydondagi raqobatning kuchayishi, shuningdek, Eron Islom Respublikasi davlatchiligining xususiyatlari muhim ahamiyat kasb etgan.

XX asrning oxirida Eron tashqi siyosati asosan Islom inqilobi g'oyalari va mamlakatning milliy manfaatlari o'rtasidagi muvozanatga asoslanib, strategik maqsadlarni belgilab oldi. 1979-yilgi Islom inqilobi ortidan Eron dunyo sahnasida o'ziga xos yo'nalishga ega mamlakat sifatida tanildi. Bu inqilob faqat mamlakatning ichki ijtimoiy-siyosiy tuzilmasini emas, balki uning tashqi siyosiy yo'nalishlarini ham tubdan o'zgartirdi. Inqilobning "na Sharq, na G'arb, faqat islom!" va "mazlumlar tarafdori bo'lish" hamda "har qanday imperiazizmga qarshi kurash" kabi shiorlari, shuningdek, islom inqilobining eksporti xalqaro munosabatlarda Eronning o'ziga xos siyosiy qiyofasini belgilab berdi.

XXI asr boshlariga kelib, xalqaro munosabatlar yangi bosqichga ko'tarildi. Iqtisodiy va siyosiy globallashuv, axborot texnologiyalarining tezkor rivojlanishi, terroristik tahdidlarning o'sishi, shuningdek, mintaqaviy mojarolarning chuqurlashuvi Eron tashqi siyosatini yanada murakkablashtirdi. Eronning tashqi siyosatida hozirgi zamonning ikki muhim yo'nalishi ko'zga tashlanadi: birinchisi, mintaqaviy darajadagi faoliyat